

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MASHG'ULOTLARNI
TASHKIL ETISHDA FAOLLIK MARKAZLARINING MAZMUNI**

**СОДЕРЖАНИЕ ЦЕНТРОВ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ
УЧАСТНИКОВ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
ОРГАНИЗАЦИЯХ**

**CONTENT OF ACTIVITY CENTERS IN ORGANIZATION OF
CLASSES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

**JDPI Maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrası o'qituvchisi
M.N.Mirazimova**

Annotasiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faollik markazlari tarbiyalanuvchilarning bilimlarini, qiziqishlarini, taassurotlarini va shaxsiy ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini erkin, mustaqil, individuallashtirish imkoniyatlarini ochib berilgan.

Аннотации: В данной статье раскрываются возможности свободной, самостоятельной индивидуализации образовательного процесса на основе знаний, интересов, впечатлений и личных навыков учащихся в центрах деятельности дошкольных организаций.

Annotation: This article reveals the opportunities for free, independent, individualization of the educational process based on the knowledge, interests, impressions and personal skills of students in the centers of activity in preschool organizations.

Kalit so'zlar: Tarbiyashi, didaktik o'yinlar, ilk qadam, kublar, legolar, kubik, o'yinchoq, o'yin materiallari, rasmlar, tasviriy materiallar, to'plamlar, portret, kitob, rivojlanish, tarbiyalanuvchi, taassurot.

Ключевые слова: Обучение, дидактические игры, первый шаг, кубики, леги, кубик, игрушка, игровые материалы, картинки, наглядные пособия, сборники, портрет, книга, развитие, ученик, впечатление

Key words: Education, didactic games, first step, cubes, legos, cube, toy, game materials, pictures, visual aids, collections, portrait, book, development, pupil, impression.

Har tomonlama yetuk, sog'lom, barkamol shaxsni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya berish, hozirgi kun ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biridir. Mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, ahloqiy estetik va jismoniy hislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707 "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh sonli "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" hamda "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etilishi mazkur sohani yanada takomillashtirishga qaratilganligi fikrimiz dalildir.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ta’lim sohasi e’tirof etildi. Ustuvor soha bo‘lgan ta’limni tubdan yangilash, uni mazmunan boyitish, ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish va rivojlangan ta’lim darajasiga ko‘tarish mamlakatda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning asosiy g‘oyasi sanaladi.


Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas bir bo‘lagiga aylangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida farzandlarimizni har tomonlama rivojlanishida, komil inson bo‘lib voyaga etishida, jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonlari va ijodiy jihatdan to‘laqonli ta’lim va tarbiya olishida faollik markazlari juda katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari guruhlaridagi tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi turli xil jarayonlar tarbiyalanuvchilarni yangi bilimlarni o‘zlashtirishlari, olgan bilimlarini mustahkamlab borishlariga yordam beradi. Tarbiyalanuvchilarni rivojlanish markazlarida olgan bilimlarini mustaqil ravishda boyitib borishi, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishi, yangi innovatsialar davrida ta’lim olishlariga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondoshuv rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

2020 yil 12 dekabr 802-son Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI hamda “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi asosida tashkil etiladigan rivojlanish markazlari bolalarda quyidagilarni tarkib toptiradi:

- tanqidiy fikrlash va etkazib berish;
- atrofda bo‘ladigan o‘zgarishlarni tez qabul qilish va amalga oshirish;
- o‘zlaridagi ijodiy, tafakkur va ixtirochilik imkoniyatlarini namoyon eta olish;
- muammolarni ijobiy hal eta olish;
- ota-ona, oila, Vatanga muhabbat, atrof-olam to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;
- tanlashni amalga oshirish va boshqalar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogi bolalarga beriladigan bilimlarni ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda, tushunarli qilib etkazishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining vazifasi shundan iboratki, har bir tarbiyalanuvchining iqtidorini, qobiliyatini, qiziqishini va ehtiyojini inobatga olgan holda ularga mos keladigan maqsadlar qo'yishi, tarbiyalanuvchilardagi iqtidorlarni qo'llab-quvvatlashi, ularda borliqni, atrof muhitni, Vatanga muhabbat hisslarini birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishi kerak. Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo, barcha tarbiyalanuvchilar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini ketma-ket bosib o'tadilar, biroq bu jarayonda har bir bolaning rivojlanish xususiyatlari, xarakteri o'ziga xos noyobdir. Tarbiyachilar har bir tarbiyalanuvchilarning bir-biriga o'xshash, aynan bir xil bo'lgan narsalar va rivojlanish faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning takrorlanmas, o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar guruhdagi bir xil yoshdagi turli tarbiyalanuvchilarning iqtidorlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerak.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" o'quv dasturi asosida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutilib amaliyotga joriy etilmoqda:



Qurilish, konstruktorlik va matematika markazi: har xil qurilish to'plamlari - kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o'ynash uchun didaktik o'yinlar va boshlang'ich matematik tasavvurlarni rivojlantirish uchun o'quv materiallari.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun atributlar va o'yin materiallari, rolli, dramatik, rejissyorlik va dramatisatsiya o'yinlari, shlyapalar - maskalar, o'yin to'plamlari va burchaklarda o'ynash uchun o'yinchoqlar - masalan «Sartarosh», «Kasalxona» va "Do'kon" o'yinlari atributlari.

Til va nutq markazi: didaktik o'yinlar, tematik mavzuli, katta va kichik formatdagi rasmlar, tasviriy materiallar, voqealar ketma-ketligini belgilash uchun rasm seriyalari, turli mezonlarga ko'ra guruhlash va boshqalar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar albomlari, magnit harflar to'plami, "Rasmlil Alifbo" kubiklari.

Ilm, fan va tabiat markazi: atrof-muhit madaniyati bo'yicha didaktik materiallar, «Tabiat va odam» rasmlari va illyustratsiyalari, valiologiya bo'yicha

maketlar, tabiiy materiallarning xususiyatlarini o'rganish uchun materiallar, to'plamlar, tadqiqotlar va tajribalar uchun, bilim to'plamlari, o'ynash uchun o'yin mavzular to'plamlari - uy va yovvoyi hayvonlar, dengiz hayoti, hasharotlar, qushlar.

San'at markazi: tasviriy faoliyat zarur jixozlar, xalq hunardmanchilik mahsulotlari tasvir etilgan albomlar va illyustratsiyalar, dekorativ-amaliy san'at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odat aks ettirilgan rasmlar, bolalar yozuvchisi va O'zbekiston shoirlari portretlari, tematik rang-barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

Faollik markazlari barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlaridagi tarbiyalanuvchilarga o'zlarining bilimlari, qiziqishlari, taassurotlari va shaxsiy ko'nikmalaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini erkin, mustaqil, individuallashtirish ya'ni yondashish imkoniyatini beradi. Masalan, san'at markazida bir tarbiyalanuvchi o'zini tasavvuridagi narsani qaychi bilan kesib olsa, boshqa tarbiyalanuvchi qog'oz qirqadi. Stol ustida o'ynaladigan o'yinlar markazida bir tarbiyalanuvchi ligolardan avtomobil yoki uycha yasasa, boshqa tarbiyalanuvchi yog'och kubiklardan esa shakl yasaydi. Pedagog bolalarni kuzatish jarayonida ularning rivojlanishiga ta'sir etadigan g'oyalarni kuzatib borishi kerak.

Har bir pedagog faollik markazlarida mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalanuvchilarning yordamchilari rolini o'ynasalar, mashg'ulotlar jarayonida bolalarning imkoniyatlari kengligi yanada ortib boradi va har bir tarbiyalanuvchi individual rivojlanishi darajasini egallay olgan holda faoliyat turlarini erkin, tasavvur bilan rejalashtiradilar.

Faollik markazlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlarda shunday tarzda yaratilishi kerakki, u tarbiyalanuvchilarga erkin va mustaqil tanlash imkonini berishi kerak. Har bir guruhda faollik markazlari to'liq bo'lishi, ularning har birida fikrlash, izlanish va o'yinlar uchun jihozlar etarli miqdorda saqlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlaridagi mavjud faollik markazlari bolalarning sifatli ta'lim olishida, shaxs sifatida kamol topishida,

rivojlanishida, hayotda o'z o'rnini topishida, qobiliyatlarini o'sishida, xotirasini kuchayishida, atrof muhitni anglashida, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashida, so'z boyligi, nutq madaniyatini rivojlanishida, kelajakda bilimli, intellektual salohiyatga ega, sog'lom fikrlaydigan, iqtidorli, ijodkor, shaxs bo'lishida, bilim hamda ko'nikmalarni egallashlarida zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash monitoringini yo'lga qo'yish kabi bir qator vazifalarni ham amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli Farmoni.
2. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707 Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi PQ-4312-son 08.05.2019-yil
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T.: 2020 yil 23 sentabr.
5. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi. T.: 2018 yil.
6. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti. 802-son 22.12.2020 yil.
7. "Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar" O'quv – uslubiy majmua. T.: 2018 yil.